

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGI NATIJADORLIGI HUDUDLAR INVESTITSIYA KO‘RSATKICHLARIDA AKS ETADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 4-mart kuni kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlash, investitsiya va eksport ko‘rsatkichlari bo‘yicha hisobot bilan tanishdi.

Yil boshidan aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha yangi tizim joriy qilingan edi. 208 ta tuman va shahar hokimlari hamda banklar rahbarlari o‘rtasida bu borada hamkorlik shartnomalari imzolandi. Bank filiallarida mahallabay ishlash bo‘limlari tashkil etilib, ularga “mahalla bankirlari” tayinlandi.

Bularning natijasida yanvar oyida 239 ming, fevral oyida 480 ming aholi daromadli mehnatga jalb qilindi. Yil boshidan kichik va o‘rta biznesga jami 14 trillion so‘m kredit yo‘naltirildi. Jumladan, tadbirkorlik dasturlari doirasida 2 trillion so‘m ajratildi.

Odamlarga daromad topish imkoniyatlari, tayyor biznes loyihalari tanishtirilib, ularni amalga oshirish yo‘llari o‘rgatilmoqda. Ishli bo‘lganlar soliq qo‘mitasida tasdiqlanmoqda. Mas’ullarga yuklatilgan vazifalar ijrosi tahlil qilib borilayotir.

Yig‘ilishda ushbu tahlillar haqida axborot berildi. Aholi bandligini ta’minlashda Jizzax, Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarida hamda O‘zmiylbank, Asakabank, Mikrokreditbank va Biznesni rivojlantirish banki loyihalarida yuqori ko‘rsatkichlar qayd etilgan.

Lekin Sirdaryo viloyati, 24 ta tuman va shaharda natijalar yuqori emas. Shu bois, vazifalar ijrosida sustkashlikka yo‘l qo‘ygan 30 nafar rahbarga nisbatan choralar ko‘rilgan.

To‘plangan tajribadan kelib chiqib, kelgusi oylarda natijadorlikni oshirish, ishsizlarni kasbga va foydali mehnatga yo‘naltirish zarurligi ta’kidlandi. Hozirgi bahor mavsumida tomorqa va ijara yerlarda to‘liq ekin ekish, buni

online-mahalla.uz platformasi orqali kuzatib borish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

O‘tgan ikki oyda investitsiya va eksport ko‘rsatkichlari ham ijobiy bo‘ldi. Yil boshidan beri 6 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirildi. Qiymati 574 million dollarlik 1 ming 100 ta o‘rta va kichik loyiha bajarilib, 17 mingdan ziyod yangi ish o‘rni yaratildi.

2,8 milliard dollarlik tovar va xizmatlar eksport qilindi. Ayniqsa, zargarlik mahsulotlari eksporti o‘tgan yilga nisbatan 7 barobar, kimyoda 1,7-marta, elektrotexnika va oziq-ovqatda 1,2 barobar, turizm xizmatlari 1,6 barobar o‘sgan.

132 ta korxonada xalqaro standartlar joriy qilingan. 521 ta korxona ilk bor tashqi bozorga chiqib, birgina fevral oyida qo‘shimcha 183 million dollar eksport qilgan.

Yig‘ilishda ayrim tarmoq va hududlarda investitsiya ko‘rsatkichlari past bo‘lgani qayd etilib, buning sabablari va yechimlari muhokama qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o‘rinbosari etib tayinlangan Dilmurod Qosimov tanishtirildi. U tadbirkorlar va investorlarning qonuniy huquq va manfaatlari himoyasi sohasidagi nazorat uchun mas’ul bo‘ladi. Endilikda prokuratura idoralari bu borada qulay huquqiy muhit yaratishda muhim o‘rin tutadi.

Mutasaddilar birinchi chorak yakuni bilan 8 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyani o‘zlashtirish rejalari, qo‘shimcha eksport imkoniyatlari yuzasidan axborot berdi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

8-MART – XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI MUNOSABATI BILAN MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda mo‘tabar ayol zotiga munosib ehtirom ko‘rsatish, xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni va nufuzini oshirish, shuningdek, o‘zining ko‘p yillik samarali mehnati, yuqori kasbiy malakasi va mahorati bilan yurtimizdagi tub islohotlarda faol qatnashib, Yangi O‘zbekistonni barpo etish, xalqimiz farovonligini yuksaltirish yo‘lida alohida tashabbus va ibrat ko‘rsatib kelayotgan, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, farzandlarimizni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga katta hissa qo‘shayotgan quyidagi opa-singillarimiz mukofotlansin:

“Do‘stlik” ordeni bilan

Abilova Aygul Tursunovna — Konimex tumani obodonlashtirish boshqarmasi farroshi, Navoiy viloyati

Gaziyeva Lyubov Borisovna — “O‘zbekiston milliy metrologiya instituti” davlat muassasasi bo‘lim mutaxassisi

Gaibnazarova Nodira Baxodirjanovna — O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining mehnatni muhofaza qilish bo‘limi mudiri

Jamolova Dilnoza Muyidinovna — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktorining o‘rinbosari

Kozixonova Orzgul Muyidinovna — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi raisi

Kunnazarova Bibisara Kalmuratovna — “Hunarmand” uyushmasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi a‘zosi, o‘tov jihozlari to‘quvchisi

Mamadiyarova Nasibali Ablakulovna — Bulung‘ur tumani hokimining o‘rinbosari — oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i, Samarqand viloyati

Mambetniyazova Gulzar Sherniyazovna — Chimboy tumani hokimining o‘rinbosari — oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Minayeva Gulnara Akramovna — “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining “O‘zvagonta‘mir” aksiyadorlik jamiyati Samarqand vagon deposi sex katta ustasi, Samarqand viloyati

Mirzayeva Xabiba Babayevna — Oqoltin tumanidagi “Oltin meros” folklor ansambli a‘zosi, “E‘zozli ayollar” sport to‘garagi rahbari, Sirdaryo viloyati

Musurmanova Aynisa — O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi huzuridagi Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti direktorining o‘rinbosari

Rabotneva Larisa Aleksandrovna — “Uzbekistan Airways Technics” mas’uliyati cheklangan jamiyatining g‘arbda ishlab chiqarilgan samolyotlar sifatini ta’minlash xizmati muhandisi

Salixova Mavlida Nazrullayevna — Buxoro viloyati “Oydin Nur” oilani ijtimoiy himoyalash markazi eksperti

Sultonova Xubon Toyirovna — Buxoro tumanidagi “Qavola Mahmud” mahalla fuqarolar yig‘inining “Oqila ayollar” harakati yetakchisi, Buxoro viloyati

Tojibayeva Sanobarxon Uktamovna — Chust tumanidagi “Chust O‘ktamjon servis” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Namangan viloyati

Tursunkulova Djamiya Shamsiyevna — “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining zoldir prokattash bo‘linmasi kran mashinisti, Toshkent viloyati

Shomuratova Oygul Jabborovna — Termiz tumani obodonlashtirish boshqarmasi gul yetishtiruvchisi, Surxondaryo viloyati

Elboyeva Klara Cho‘liyevna — Nishon tumanidagi “Nishon qorako‘lchilik” mas’uliyati cheklangan jamiyati bosh cho‘poni, Qashqadaryo viloyati

Yuldashova Mehri Artiqovna — Dehqon-obod tumani hokimining o‘rinbosari — oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i, Qashqadaryo viloyati

II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan

Adxamjonova Mavludaxon Xamzayevna — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi a‘zosi

Axmedova Soraxon Tolipjanovna — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining ma’muriy huquq kafedrası professori

Kamolova Istat Shukurovna — G‘ijduvon tumani hokimining o‘rinbosari — oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i, Buxoro viloyati

Negmatova Xalima Utabovna — Jizzax shahar hokimining o‘rinbosari — oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i, Jizzax viloyati

Saidova Dilfuza Eshkulovna — Jizzax shahridagi 22-ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktori, Jizzax viloyati

Soliyeva Uktamxon Qozoqovna — Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi o‘qituvchisi, shoira, Farg‘ona viloyati

Davomi 2-betda

Inson qadri uchun



“XALQ OVOZI”GA AYLANISH MAS’ULIYATI MAHALLIY KENGASHLAR FAOLIYATINI YANGI BOSQICHGA KO‘TARADI

Xalq hokimiyatchiligini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilishga oid dolzarb masalalarni hal qilishda mahalliy kengashlar faoliyati muhim o‘rin tutadi. Shu bois, so‘nggi yillarda mahalliy kengashlarning vakolati hamda ular oldida hisobdor bo‘lgan mahalliy ijro etuvchi organlarning tarkibi kengaytirildi.

Xususan, mahalliy kengash deputatlari o‘z sessiyalarida 30 ga yaqin davlat boshqaruv organlari hududiy tuzilmalarini rahbarlarining hisobot va axborotini eshitish vakolatiga ega bo‘ldi. Shu bilan birga, mahalliy kengashlar faoliyatiga har qanday aralashuvga yo‘l qo‘yilmashligi, ular zimmasiga vazifa va

funksiyalar faqatgina qonun hujjatlari bilangina yuklanishi belgilab qo‘yildi. Bu mahalliy vakillik organlarining mustaqil organ sifatidagi kafolatlari yanada mustahkamlanishi hamda xalqimizning haqiqiy ovozigacha aylanishiga xizmat qilmoqda.

Davomi 3-betda



Tibbiyot

UMID BERAYOTGAN AMALIYOT

5

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni

MO‘TABAR AYOLLAR HAMISHA E‘ZUZ VA EHTIROMDA

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tashabbusi bilan 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida “Ayolga ehtirom” haftaligi o‘tkazilmoqda. Haftalik doirasida poytaxtimizda “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni bilan mukofotlanganlarni taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda ta’kidlanganidek, yurtimizda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, bandligini ta’minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar barcha sohalarida erishilayotgan yutuqlarimizning muhim poydevori bo‘layotir.

Davomi 2-betda



BIR MAQSADLI UCH HUJJAT

Ular yoshlarni yanada faol va tashabbuskor bo‘lishga undaydi

Sharh

Qadimdan xalqimiz orasida katta savdogar, turli sohadagi ishbilarmonlar ko‘p bo‘lgan. Bunga shaharlarimizning Sharq va G‘arbni bog‘lab turgan Buyuk ipak yo‘li markazida joylashgani ham bir omil. Mazkur karvon yo‘lidan uzoq o‘lkalarga yo‘l olgan tujjorlar hududimizdagi yirik karvonsaroy, gavjum bozorlarda to‘xtab, mollarni sotgan yoki mahalliy aholi mahsulotlarini xarid qilgan. Bu xalqimizning ishbilarmonlik salohiyatini yanada oshirgan. Shu bois, hozir ham aholi bandligini ta’minlash, kambag‘al oilalar farovonligini oshirishda ularning tadbirkorlik salohiyatini yuzaga chiqarib, o‘z biznesini yo‘lga qo‘yishiga moddiy-ma’naviy tomondan ko‘maklashish samarali usullardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ayniqsa, endigina katta hayotga qadam qo‘yayotgan, zamonaviy fikrlaydigan, g‘ayrat-shijoati baland tadbirkor yoshlarning biznesi tezda oyoqqa turib, odamlar tiliga tushyapti. Albatta, bunda ularga erkin faoliyat yuritishi uchun yaratilayotgan sharoit hamda berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlarning ahamiyati katta. O‘tgan 8 yil ichida yosh tadbirkorlar soni uch karra ko‘payib, bugun biznes vakillarining salkam 40 foizini 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il-qizlar tashkil etayotgani so‘zimizni isbotlaydi. Kelgusida bu ko‘rsatkich karrasiga ortishi kutilyapti. Sababi, joriy yil 14-fevralda Prezidentimiz yoshlar tadbirkorligida

mutlaqo yangi davrni boshlab beradigan uchta muhim hujjatni imzoladi. Ularga asosan, yo‘lga qo‘yiladigan yangi tizimga ko‘ra, yoshlarning o‘y-xayoli, maqsad va g‘oyalari o‘rganilib, tayyor biznes rejalarga aylantiriladi. Hatto bu biznes g‘oyalarni qayerda, qanday hayotga tatbiq etish manfaatlari ekan ham o‘rganiladi.

Xususan, Prezidentimizning “Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, Yoshlar ishlari agentligi huzurida tashkil etilayotgan Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi o‘g‘il-qizlarga yaqin hamkor, joyi kelganda maslahatchi, kerak bo‘lsa, moddiy qo‘llab-quvvatlaydigan homiy vazifasini o‘taydi.

Davomi 4-betda



2025-yil 5-mart, 45-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

SIYOSAT

YANGI O‘ZBEKISTON



8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni



Hakim Yo‘ldoshev olgan suratlari.

MO‘TABAR AYOLLAR HAMISHA E‘ZOZ VA EHTIROMDA

Boshlanishi 1-betda

Yaratilayotgan shunday keng qamrovli imkoniyatlar opa-singillarimizning barcha sohalarda faolligi yanada oshishiga zamin yaratmoqda. Jumladan, bugungi kunda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35, tadbirkorlik sohasida 45, siyosiy partiyalar tarkibida esa 49 foizga yetdi. Bundan tashqari, opa-singillarimiz tibbiyot, ta‘lim, iqtisodiyot tarmoqlari, sanoat va ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, moliya va sug‘urta faoliyati, shuningdek, boshqa sohalarda ham faol mehnat qilmoqda.

Har bir insonning o‘z salohiyatini yuzaga chiqarishi uchun yaratilayotgan zamonaviy sharoitlar tufayli oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan xotin-qizlar ulushi 52,2 foizni tashkil etmoqda. Xotin-qizlar raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari kabi ilg‘or sohalarga faol kirib kelmokda.

O‘z navbatida jamiyatimizdagi islohotlarda faol ishtirok etayotgan opa-singillarimizning fidokorona mehnatini e‘zozlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash doimiy e‘tibordir. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-apreldagi “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishonini ta‘sis etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori shu maqsadlarga xizmat qilmoqda. Bugungi kunga qadar 1500 dan ortiq xotin-qiz ushbu ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

Joriy yilda ham mazkur mukofotga nomzodlarni saralash jarayoni qizg‘in

B.HAZRATQULOVA, jurnalist

Xayitova Sayyora Nomzoboyevna — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Yakkasaroy tumani qo‘riqlash bo‘limi guruh komandiri, Toshkent shahri

“Kelajak bunyodkori” medali bilan

Yoqubjonova Shaxnoza To‘lqinjon qizi — Gnesin nomidagi Rossiya musiqa akademiyasi magistranti

Fayzullayeva Madina Xikmatillayevna — “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi xonandasi

“Shuhrat” medali bilan

Abduvaliyeva Sanobar Sultonovna — “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Angren kon boshqarmasi “Ko‘chbuloq” shaxtasi kompressor qurilmalari mashinisti, Toshkent viloyati

Abdullayeva Ozoda Safibullayevna — Namangan muhandislik-qurilish institutining sanoatni axborotlashtirish fakulteti dekani, Namangan viloyati

Abdusalomova Farog‘at Sunnatulla qizi — O‘zbekiston davlat simfonik orkestri xor jamoasi rahbari

Azizova Gulbaxor Nazrullayevna — Mirzo Ulug‘bek tumanidagi “Bahor Deco” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Toshkent shahri

Aitbayeva Zamira Joldashovna — Nukus shahridagi “Nauqan bag‘” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Akramova Mashxura Zafarjon qizi — Quvasoy shahridagi “Ellycardin Tekstil” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Farg‘ona viloyati

Aripova Maktuba Kabulovna — Uchtepa tumani hokimining o‘rinbosari — oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i, Toshkent shahri

Bobomurotova Gulrx Umarovna — Nurota tumani hokimining o‘rinbosari — oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i, Navoiy viloyati

Boyeva Fotima Saloxiddinovna — Parkent tumanidagi yakka tartibdagi tadbirkor, Toshkent viloyati

Dexkanova Nargiza Akbarovna — Andijon shahar hokimining o‘rinbosari — oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i, Andijon viloyati

Yorkulova Marziya Fayziyevna — Paxtachi tumani “Urganji” mahalla fuqarolar yig‘inidagi kutubxona rahbari, Samarqand viloyati

Jo‘rayeva Ozoda Hasanovna — Denov tumanidagi 1-oilaviy bolalar uyi rahbari, Surxondaryo viloyati

Yo‘ldasheva Mahliyo Norpo‘latovna — G‘uzor tumanidagi hunarmand-tikuvchi, Qashqadaryo viloyati

Kamoliddinova Mukaramxon Usmanovna — Andijon shahridagi “Auto Rubber” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining yig‘uv liniyasi ustasi, Andijon viloyati

Karimova Shahnoza Yandashovna — Navoiy shahridagi “Baraka Non Navoiy” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Navoiy viloyati

Karshibayeva Gulchexra Shodmonkulovna — Boyovut tumanidagi “Bolg‘ali Qilich aka” fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Sirdaryo viloyati

Komilova Saodat Yusupjonovna — Jizzax shahri telekommunikatsiya bog‘lamasi telegraf elektr montyori, Jizzax viloyati

Qorayeva Dilnavoz Kumakovna — Sho‘rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining yetakchi muhandis-texnolog, Qashqadaryo viloyati

Qo‘chqorova Barno Ibodullayevna — Yangiariq tumani hokimining o‘rinbosari — oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i, Xorazm viloyati

Mamatqulova Zinnat Mamatqulovna — Yangiobod tumanidagi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri, 2025-yil 4-mart

SH. MIRZIYOYEV

E‘TIROF NAVBATDAGI YUTUQLARGA ILHOMLANTIRADI

Biybinaz TUREMURATOVA, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali 1-bosqich magistranti, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibi:

— Yurtimizni rivojlantirishda ayni paytda yuqori malakali dasturchi va mutaxassislarga ehtiyoj katta. Albatta, bugunni va kelajagimizni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Shunday ekan, bugun raqamli texnologiyalarni puxta egallagan insongina mehnat bozorida o‘z o‘imini mustahkamlash imkoniyatiga ega. Mamlakatimizda “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida yoshlarni nufuzli xalqaro kompaniyalar talablariga mos dasturlar asosida tayyorlash vazifasi belgilangan. Men ham kompyuter injiniringi mutaxassisligi bo‘yicha bilimim va ko‘nikmamni mustahkamlayapman. Respublika miqyosida o‘tkazilayotgan barcha ilmiy-amaliy anjumanlarda qatnashib kelyapman. Shu kungacha nufuzli ilmiy nashrlarda 35 ta ilmiy maqolam e‘lon qilindi. Shuningdek, nutqida muammosi bo‘lgan odamlarga muloqot qilishda yordam beradigan dasturni ishlab chiqayman.

Har yili bahor kirib kelishi bilan mamlakatimizda xotin-qizlarni e‘zozlash, ezgu orzu-intilishlarini qo‘llab-quvvatlash hamda o‘zining iqtidori, muhim g‘oya va tashabbuslari, shu bilan birga, zamonaviy bilim va malakasi, intellektual salohiyatini namoyon etayotgan qizlarni Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan munosib rag‘batlantirish yaxshi an‘anaga aylangan.

2024-yilda mazkur mukofot bilan taqdirlash jarayoni yanada takomillashib, davlatimiz rahbarining 2024-yil 7-fevraldagi tegishli farmoni bilan xotin-qizlar o‘rtasida raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish, axborot texnologiyalari sohasi, jumladan, AT xizmatlari ko‘rsatish, dasturiy mahsulotlar ishlab chiqishdagi ulushini oshirish, axborot texnologiyalari yo‘nalishida alohida yutuqlarga erishgan iqtidorli qizlarni munosib taqdirlash ham kiritildi. Men ham ilk bora axborot texnologiyalari yo‘nalishi bo‘yicha Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga munosib deb topilganimdan behad xursandman.

Bu yutuq va e‘tiroflar zimmamga katta mas‘uliyat yuklaydi. Oldimga katta rejarlar qilib qo‘yg‘anman. Qoraqalpoq elining Xo‘jayli tumanidagi oddiy bir oiladan chiqqan qizga shuncha ehtirom va e‘zoz ko‘rsatilayotgan ekan, vatanimiz ravnaqi yo‘lida bor kuch-g‘ayratimni, bilim va salohiyatimni namoyon etishga siddiqdildan harakat qilaman.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



O‘ZBEK RAQSLARINI O‘ZBEKISTONNI SEVGANDEK SEVAMAN

Alina BABESHKO, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi o‘qituvchisi, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibi:



— O‘zbekiston xalq artisti Gavhar Matyoqubova kuylagan “Xorazm galini” raqsini ijro etib, 2-o‘rinni egallaganimda O‘zbekistonga mehrim har qachongidan jo‘shib ketdi. Chunki Xorazmdak qadimiy vohaning kuy-qo‘shig‘lari, ayniqsa, raqslari butun dunyoga ma‘lum va mashhur.

O‘tgan yil oktyabrda Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga nomzod sifatida tavsiya etildim. Tanlovning hududiy bosqichlaridan muvaffaqiyatli o‘tdim. Respublika bosqichida “Kuygay” raqsini ijro etdim. Peshonamga yozilgan ekan, kamtarona mehnatim yuksak baholanib, shu mukofotga munosib ko‘rildim.

Hozir Muqimiy nomidagi davlat akademik musiqali teatrida balet artisti, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida pedagog sifatida faoliyat yuritayapman. Kelajak avlod tarbiyasiga, teatr san‘ati rivojiga hissa qo‘shayotganimdan baxtiyorman.

Yana bir yaxshi gapni aytmasam bo‘lmaydi. Joriy yil yanvarida menga Rossiya davlat sahna san‘ati instituti talabalariga Buxoro va Farg‘ona raqslari bo‘yicha mahorat darsi o‘tish taklifi keldi. Nasib etsa, aprelda Sankt-Peterburgda mahorat darslarini o‘tib qaytaman. Ayni paytda mumtoz kuylarga raqslar sahnalashtirishni rejalashtirganman. Mumtoz raqslarimni 2-3 oyda tomoshabinlar e‘tiboriga havola qilish niyatidaman. Shuni faxr bilan aytamanki, o‘zbek raqslarini O‘zbekistonni sevgandek sevaman. Ularni dunyoga tanitish uchun bor mahoratimni ishga solishga tayyorman.

— Bolalikdan san‘atga, musiqaga qiziqqanim tufayli 1-sinfda o‘qiyotganimda onam musiqqa maktabining nay (fleyta), fortepiano sinfga bergan. Maktabda o‘qib yurganimda ko‘plab tadbirlarga borar edik. Bir tadbirda raqqosalarining chiqishini yoqtirib qolib, onamga “Men raqsga boraman”, deganman.

2012-yilda xoreografiya bilim yurtiga o‘qishga kirib, ustozlardan raqs sirlarini o‘rgana boshladim. 2013-yil avgustida Samarqandda “Sharq taronalari” festivalining ochilish va yopilish marosimida “O‘zbekraqs” birlashmasi ansambli bilan katta sahnaga chiqdim. Ana shunda xoreografiyani tanlab to‘g‘ri qilganimni ich-ichimdan his etganman. O‘zbekiston nomidan ilk bor katta sahnada san‘atimizni namoyish qilish imkonini bergani uchun ustozlarimdan minnatdor bo‘lgandim. Ansambli rahbari Muyassar Sotivoldiyeva meni ruhlantirar, mashg‘ulotlarda qatnashishga undardi. 2014-yil avvalida ansamblga ishga qabul qilindim. Shu tariqa katta sahnadagi professional ijodim boshlandi.

2015-yilda ilk bor Hindistonga gastrol safariga borganimizda Agra shahrida buyuk vatandoshimiz tomonidan barpo etilgan Tojmahalni ko‘rib, lol qoldim. Shundan so‘ng yana ko‘plab boshqa yurtlarga ham borishni niyat qilganman. San‘atim ortidan dunyo ko‘rish nasib etdi. Biroq baribir oliy ma‘lumot zarurligini har on his qilib turardim.

2017-yilda Respublika yosh ijrochilar ko‘rik-tanlovida qatnashib, 1-o‘rinni egalladim hamda imtiyozli ravishda Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi talabasi bo‘ldim. Buning uchun davlatimizdan minnatdorman. Chunki keyingi paytda yurtimizda san‘at va madaniyatga juda katta e‘tibor berilyapti. Buning natijasida qator xalqaro ko‘rik-tanlovlarda qatnashib, sovrinli o‘rinlarni egallab kelyapmiz. Ayniqsa, Rossiyaning Grozniy shahrida buyuk raqqos Maxmud Esambayev nomidagi XIV yakkaxon ijrochilar ko‘rik-tanlovida 176 ishtirokchi orasida ustozim

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz o‘tgan yil 19-noyabrda Oliy Majlis Senatining birinchi majlisida so‘zlagan ma‘ruzasida jamiyatimizdagi muhim islohotlar qatorida mahalliy kengashlar faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish bilan bog‘liq qator muhim g‘oya va tashabbuslarni ham ilgari surgandi. Qonun ijodkorligi jarayoniga mahalliy kengashlarni jalb etish, hududlarni rivojlantirishga

oid dasturlar ijrosi bo‘yicha deputatlik va kengash nazoratini amalga oshirish shular jumlasidan.

“Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” davlat dasturida belgilangan keng ko‘lamli vazifalarni amalga oshirishda mamlakatimizdagi barcha tuzilma qatorida mahalliy kengashlar faoliyati ham muhim o‘rin tutadi. Ayni kunlarda joylarda shu yo‘nalishda qanday ishlar bajarilayapti? Mahalliy kengashlar raislaridan ba‘zilarining shu xususdagi fikrlari bilan qiziqdik.

KENGASH SO‘ROVI VA TEKSHIRUVI

YANGI MEXANIZMLAR HUDUDIY DASTUR VA LOYIHALAR IJROSI USTIDAN OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI KUCHAYTIRADI

Solijon MO‘MINOV,
xalq deputatlari Namangan viloyati kengashi raisi:

— Viloyatimizda odamlarning hayot tarzi va hudud qiyofasi tubdan o‘zgarmoqda. Fikrimizni raqamlar orqali ifoda etsak, so‘nggi yillarda Namangan viloyati iqtisodiyoti 2 barobar, eksport hajmi 3 karra o‘sib, aholi jon boshiga daromad ham ko‘payib boryapti. Iqtisodiyotimizning turli tarmoqlariga investitsiya keng jalb etilishi hisobiga yangi ish o‘rinlari ochilmoqda.

Albatta, bu natijalar davlatimizning uzoqni ko‘zlab hamda inson manfaatini eng oliy qadriyat deb belgilab amalga oshirayotgan oqilona siyosati mahsulidir. Ushbu xayrli ishlar bardavom bo‘lishi va hududlar salohiyati yuksalib borishida barcha soha va tarmoqlar vakillari qatori xalq noiblarining ham o‘rni katta.

Prezidentimiz Oliy Majlis Senatining 2024-yil saylovdan keyingi birinchi majlisida bu borada zimmamizda turgan vazifalar xususida to‘xtalar ekan, kengash so‘rovi va kengash tekshiruv kabi yangi mexanizmlar orqali hududiy ijro organlari faoliyati ustidan



nazoratni kuchaytirish, joylarda aholini qiynayotgan muammolarni aniqlash hamda bartaraf etishda faol va tashabbuskor bo‘lishimiz lozimligini ta’kidladi.

Bugun yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tobora faollashmoqda. Dunyodagi keskin geosiyosiy vaziyatga qaramay, iqtisodiyotimiz jadal ildamlayapti. Aholi bandligini ta’minlash, kambag‘allikni kamaytirish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, ta’lim va tibbiyot tizimini isloh etish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilyapti.

Natijada ko‘pgina sohalarda katta yutuqlarga erishilyapti. Ushbu keng ko‘lamli islohotlar yurtimizning xalqaro reytinglardagi o‘rniga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xususan, mamlakatimiz reytingi qonun ustuvorligi bo‘yicha 8 pog‘ona, elektron hukumat bo‘yicha 18 pog‘ona, iqtisodiy erkinlik bo‘yicha 49 pog‘ona, logistika va innovatsiya bo‘yicha 10 pog‘ona yuqori ko‘tarildi. Bu yutuqlar bardavom bo‘lishi har birimizning yurt ravnaqiga munosib hissa ko‘shishimizga bog‘liq. Mahalliy kengashlar deputatlari ham bunday ezgu yumushlarda hamisha oldingi safda bo‘lishi bugunning



BOR KUCH VA SALOHİYATIMNI ISHGA SOLAMAN

Oltiboy RAJABOV,
xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashi raisi:

— Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda yangi O‘zbekistonni barpo etishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratish hamda birga, davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. Xususan, bosh qonunimizga asosan, hokimlarning xalq deputatlari mahalliy kengashlariga raislik qilishi amaliyoti bosqichma-bosqich bekor qilinmoqda.

Ushbu norma dastlab viloyatlar va Toshkent shahri kengashlariga, 2026-yildan esa tuman-shahar kengashlariga tatbiq etilishi belgilangan. Endi mahalliy kengashlarga hokimlar emas, balki deputatlar orasidan saylangan kengash raislari boshchilik qiladi.

2024-yil yakunida mahalliy kengashlarning birinchi tashkiliy sessiyalarida deputatlar orasidan ilk marotaba kengash raislari saylab olindi. Jumladan, men ham xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashi raisi etib saylandim. Xalqimizning menga bildirgan bu ishonchi ulkan faxr-iftixor baxsh etdi. Buni oqlash uchun bor kuch va salohiyatim hamda ko‘p yillik tajribamni ishga solib, mehnat qilishni burchim deb bilaman.

Ko‘p yillik faoliyatim davlat va jamoat ishlari bilan o‘tdi. Mustaqillikka



erishganimizdan keyin ham turli lavozimlarda ishladim. 1992-yilgacha mamlakatimizda bir muddat mahalliy davlat hokimiyatiga ikki rahbar boshchilik qilgan holatlarga ham guvoh bo‘lganmiz. O‘shanda ayrim rahbarlar dolzarb muammolarni hal qilib, hududni rivojlantirish o‘rniga obro‘ talashishdan ortmay qolgani ham bor gap. Tabiiyki, boshqaruvdagi bunday xatolar

davlat rivojiga, xalq hayotiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmasdi.

Prezidentimiz 2024-yil 19-noyabrda Oliy Majlis Senatining birinchi majlisida so‘zlagan ma‘ruzasida yaqin tariximizda ro‘y bergan bu voqealarni bejiz yodga olmadi. Zero, rahbar bo‘lgan inson butun borlig‘ini xalq hayoti va tashvishi bilan chambarchas bog‘lamas ekan, bunday boshqaruv odamlar hayotini og‘irlashtiradi. Shu bois, davlatimiz rahbari o‘tmishda yo‘l qo‘yilgan ushbu xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqarishimiz va ularni takrorlashga yo‘l qo‘ymasligimiz lozimligini uqtirdi.

Umuman, hokim ham, kengash raisi ham, avvalo, o‘z hududida yashayotgan aholi manfaatlarini yuqori o‘ringa qo‘yib, yagona jamoa bo‘lib ishlashi zarurligi ta’kidlandi. Bugun har bir yo‘nalishda faoliyatimizni tashkil etishda ana shu masalalar diqqat-e’tiborimizda turibdi.

Bugun mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati “Kuchli kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim” tamoyili asosida tashkil etilmoqda. Ushbu yondashuv mahalliy kengashlarning faolligini oshirish, hududdagi muammolarni hal etishda tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Xususan, joriy yil yanvarida xalq deputatlari viloyat kengashining beshinchi sessiyasida jami 13 ta masala ko‘rildi. Shu bilan birga, hududiy va xalqaro hamkorlikdagi dasturlar



G‘ofir ALIYEV,
xalq deputatlari Navoiy viloyati kengashi raisi:

— “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi”. Bu g‘oya zahirida ulkan ma’no va maqsad mujassam. Zero, xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir. Shu bois, taraqqiyotga intilgan har bir davlat hamisha xalqqa tayanadi, islohotlarni xalq fikri va qo‘llari bilan amalga oshiradi.

Bugun hayotimizning barcha jabhasida ro‘y berayotgan muhim o‘zgarishlar ham aynan xalq bilan muloqot keng yo‘lga qo‘yilgani, har bir ishda ular bilan bamaslahat yo‘l tutilgani samarasi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Joriy yildagi davlat dasturida bu xayrli ishlarni izchil davom ettirish, xalqimizning farovonligini yanada oshirish bilan bog‘liq katta-katta maqsad va vazifalar belgilandi. Jumladan, aholini tadbirkorlikka jalb qilish orqali oilalar daromadini oshirish bo‘yicha yangi yondashuvlarni keng joriy qilish ko‘zda tutilgan.

Mahallalarda ehtiyojmand aholi qatlami bilan manzilli ishlashni tashkil etish va ijtimoiy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, mavjud



biz, xalq vakillari — viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatlari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Bu yilgi bandlik dasturi doirasida sektorlar va mahallalar kesimida oyma-oy maqsadli ko‘rsatkichlar xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari sessiyasida keng muhokamadan o‘tkazildi.

Bundan tashqari, mahallalarda tashkil etilgan mikroloiyhalarini deputatlik nazorati asosida o‘rganish rejalashtirilgan.

Viloyatdagi barcha mahallada aholi bandligini ta’minlash va daromadini oshirish borasida shu yil yanvarda 961 ta mikroloiyha shakllantirilishi va 2000 ga yaqin kishining bandligi ta’minlanishi belgilangan edi. Amalda esa hokim yordamchilari tomonidan 1360 ta mikroloiyha onlayn mahalla platformasiga kiritilib, reja 141,5 foiz qilib bajarildi. Ushbu loyihalardan 1088 tasi ishga tushirilgan. Natijada ko‘plab ishsizlar ishli bo‘lib, oilalar daromadi ortishiga hissa qo‘shildi.

Bu xayrli ishlar davomli bo‘lishiga erishish uchun yana qator yangi loyihalarini ilgari surish orqali ish o‘rinlarini ko‘paytirish rejalashtirilgan. Bu jarayonda ishsizlik



resurslar, imtiyoz va preferensiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali yuqori daromadli ish o‘rinlari ochish hamda kambag‘allikni qisqartirish choralari ko‘rilmoqda. Shu maqsadda Prezidentimizning “2025-yilda aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Uning ijrosini ta’minlash

muammosi dolzarb bo‘lgan chekka hududlarda ham ishlar davom ettirilyapti. Konimex tumanidagi loyihalar bunga misol bo‘ladi.

Asosan, chorvachilikka ixtisoslashgan mazkur hududda ushbu tarmoqni yanada rivojlantirish bo‘yicha istiqbolli loyihalar bajarilyapti. Misol uchun, “Tulpor” fermer xo‘jaligi negizida qo‘ychilikni rivojlantirish

muammoli masalaning 38 tasi joyida hal etildi, qolgan 6 tasi nazoratga olingan.

Masalan, Xonqa tumanining Nurafshon, Shodlik kabi mahallalarida yashovchilar bilan o‘tkazilgan muloqotda yo‘l muammosi ko‘tarildi. Masalani hal etish maqsadida viloyat avtomobil yo‘llar bosh boshqarmasiga deputat so‘rovi yuborildi. Ta’minlab qismi tegishli dasturga kiritilib, ishlar boshlandi.

Shuningdek, Xonqa tumanidagi Kaltayop kanalini betonlashtirish va eskirgan nasoslarni rekonstruksiya qilish masalasi ham dasturga kiritilib, loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilmoqda. 35-Chig‘atoy qal’a saylov okrugi hududi, ya’ni Shovot tumanining Xitoy mahallasida yo‘llar ta’minlab ekani, piyodalar yo‘li yo‘qligi aholi va o‘quvchilarga qiyinchilik tug‘dirishi ma’lum bo‘ldi. Bu muammoni hal etish bo‘yicha belgilangan tartibda ishlar boshlab yuborildi.

Bundan tashqari, deputatlarimiz o‘zlari saylangan hududlarga chiqib, sayyor qabullar

loyihasi ishga tushirildi. Buning uchun qiymati 1 milliard so‘mlik 400 bosh chorva olib kelindi va qo‘shimcha 3 ta yangi ish o‘rni ochildi. Bu ishlarga 14-Sarjal ovulidan saylangan deputat Batirxan Qusharbekov bosh-qosh bo‘lmoqda.

15-Nodira saylov okrugidan saylangan deputat Yusup Murodov tashabbusi bilan bir necha yillik muammo hal etildi. Ya’ni Yangiariq mahallasining ichki ko‘chalari o‘rganilib, zamonaviy tungi yoritqichlar o‘rnatildi. Yoki yana bir mahalliy kengash deputatining sa’y-harakati va ko‘magi bilan 2 yildan buyon buyrak yetishmovchiligidan aziyat chekayotgan bemor ayolning mushkuli oson bo‘ldi. Charos Engamberdiyevaga buyrak ko‘chirish operatsiyasi o‘tkazish uchun zarur mablag‘ topishda ko‘mak berildi. Hozir bemorning ahvoli ancha yaxshi. Bu ko‘mak nafaqat bir inson, balki uning oilasi, yaqinlari uchun ham katta madad bo‘ldi.

Qolaversa, keng jamoatchilik ko‘z o‘ngida ro‘y berayotgan bunday hayotiy voqealar “Hech kim o‘z muammosi bilan yolg‘iz qolmasligi kerak”, “Inson qadri barcha narsadan ustun” degan hayotiy tamoyillar faqat so‘zda emas, balki amalda o‘z isbotini topayotganini yaqqol namoyon etmoqda.

Shu tarzda deputatlar xalqimiz uchun manfaatli qarorlar qabul qilinishi va amaliy ishlar davomli bo‘lishida doimo tashabbus ko‘rsatmoqda. Hududlar qiyofasini zamonaviylashtirish, aholi hayotini yaxshilashga xizmat qiladigan yangi taktiklar ilgari surilmoqda.

To‘ylar, oilaviy tantana, ma’raka va marosimlarni tartibli o‘tkazish nafaqat bugungi hayotimiz, balki kelajak avlodlar kamolotida ham muhim o‘rin tutadi. Bu borada Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining tegishli qo‘shma qarori qabul qilingan. Ushbu hujjat ijrosi bo‘yicha ishlar davom etyapti. Biroq ba’zi hududlarda bu chora-tadbirlar to‘liq ijro etilmasligi, to‘g‘y-hasham, marosim va turli oilaviy tadbirlarda isrofchilik va dabbadabozlik kuzatilyotganini jamoatchilikni tashvishga solmoqda.

Ushbu muammolarga chek qo‘yish uchun aholining taklif va murojaatlariga muvofiq, deputatlar tashabbusi bilan xalq deputatlari viloyat kengashining qarori qabul qilindi. Ayni paytda deputatlarimiz ushbu qaror ijrosini ta’minlash, to‘y-marosimlarni ixcham va milliy an’analarga mos o‘tkazish bo‘yicha aholi o‘rtasida keng targ‘ibot olib bormoqda.

Albatta, hali oldimizda qilinadigan ishlar ko‘p. Vatanimiz taraqqiyoti, kelajak avlodlar kamolotiga xizmat qiladigan muhim vazifalarni to‘laqonli bajarish va el ishonchini oqlash zimmamizdagi ustuvor vazifa va burch bo‘lib qoladi.

o‘tkazyapti. Bu jarayonda tushgan murojaatlarga joyida yechim topish choralari ko‘rilyapti.

Deputatlarimizning ana shunday ishlaridan xalqimizni xabardor etish, mahalliy kengashlar faoliyati bo‘yicha aholiga ochiq va shaffof ma’lumot berish ham e’tiborda. Shu maqsadda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, viloyat kengashining o‘tgan yildagi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalarida yuzga yaqin chiqish uyushtirildi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali ham tegishli tartibda ma’lumot berib borilmoqda.

Joriy yilda bu yo‘nalishdagi ishlar yanada kengaytirilib, mahalliy kengashlar tomonidan qilingan ishlar bo‘yicha matbuot anjumanlari o‘tkazish amaliyotini yo‘lga qo‘yish niyatidamiz. Shu bilan birga, vazirlik va idoralarning quyi bo‘g‘inlari, ayniqsa, tuman, shahar bo‘linmalari bilan ishni yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish ko‘zda tutilgan.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Bahor XIDIROVA yozib oldi.



Sharh

BIR MAQSADLI UCH HUJJAT

Ular yoshlarni yanada faol va tashabbuskor bo'lishga undaydi

Boshlanishi 1-betda

Jamg'arma har qanday biznes g'oyani ham hayotga tatbiq etaveradimi? Yo'q, albatta. Avvalo, tashkilotga murojaat qilgan yoshlarning biznes loyihasi qanchalik muvaffaqiyatli ekanini bo'yicha ekspertlarning tegishli xulosasi olinadi. Chunki bugungi tezlashgan zamonda biznes loyiha pishiq-puxta bo'lmasa, bozor talablari va raqobatga javob bera olmay bankrotga uchrashi mumkin. Misol uchun, jamg'armaga yoshlardan biri tepishar taom (lavash, shaurma) sotiladigan yemakxona ochish istagini bildirib murojaat qildi. Bunday yemakxona ochishning sarf-xarajati va qancha foyda keltirishi hisoblanib, tayyor biznes loyiha yaratiladi. Uning qanchalik samarali ekanini ekspertlardan tuzilgan kengash tomonidan o'rganilib, baholalanadi. Ularning 50 foizidan ko'pining ovozigina ega bo'lgan biznes loyiha samarali deb topilib, hayotga tatbiq etiladi.

Kengash a'zolari kimlardan iborat? "Zar qadimini zarqar biladi" deganlaridek, kengash a'zolari mamlakatimizda muvaffaqiyatli biznes yuritayotgan 20 nafar faol tadbirkordan tuziladi. Ularning ayni shu qozonda qaynab yurgani, ichki va tashqi bozor talablaridan boxabarligi, ish tajribasi loyihalarning muvaffaqiyati to'g'ri baholanishida qo'l keladi.

Shuningdek, o'ziga to'q ishbilarmonlarning kengashga jalb etilishi tarmoqning shaffof, korupsiya, tanish-bilishchilik kabi illatlardan xoli bo'lishiga zamin yaratadi. Kengash a'zolarining 30 foizi yosh tadbirkorlardan tuzilishi esa saralanadigan loyihalarning aksariyati zamonaviy tarmoqqa oid bo'lishiga zamin yaratadi.

Tasavvur qilaylik, yuqoridagi yemakxona tashkil etish borasidagi biznes loyiha kengash tomonidan ma'qullandi. Endi keyingi bosqich, yemakxona ochish uchun eng maqbul joy tanlanadi. Agar bu bo'yicha loyiha muallifining biror taklifi bo'lmasa, jamg'arma tomonidan saralangan biznes loyihalar qaysi yo'nalishda ekaniga qarab alohida taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Yemakxona ochish joyi ayni paytda mamlakatimizning turli hududlarida tashkil etilayotgan yangi 154 ta turizm va gastronomik ko'chadan biri bo'lishi mumkin. Shuningdek, u yerda yosh tadbirkorlarning turli biznes g'oyalarini hayotga tatbiq etish uchun kerakli shart-sharoit va imkoniyatlar hozirlanayotgani ham loyihaning tezda amaliyotga tatbiq etilishiga zamin yaratadi.

Bunday manzillarga mahalliy aholi bilan birga xorijiy sayyohlar ham kelishi yemakxona daromadini karrasiga o'rtiradi. Birinchi navbatda, yoshlarning tashabbuslari bilan bunday ko'chalarda mingta savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchasi faoliyati yo'lga qo'yilishi rejalashtirilmoqda.

Yoshlarga qishloq xo'jaligi yerlari ajratilishi ikki-uch yildan beri o'zini oqlab kelayotgan amaliyotlardan. Agar mana shu yerlardan foydalanib, daromadini 100 million so'mdan oshirgan mehnatkash o'g'il-qizlarimizdan biri hosildorlikni yanada o'rttirish, faoliyatini kengaytirishni istasa, ularga jamg'arma o'z yordamini taklif etadi. Bunday yoshlarga yangi nav yaratish yoki turli agrotekhnika ishlarni amalga oshirishi uchun zarur mablag' beriladi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash, qadoqlash tarmog'ini tashkil etish bo'yicha



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

biзнес loyihalarni taqdim etsa, bunday tashabbuslar, albatta, e'tibordan chetda qolmaydi. Jamg'arma tomonidan bunyodkorlik ishlari uchun kerakli shart-sharoit hozirlanib, moddiy ko'mak beriladi.

Qaysi sohada faoliyat yuritishni niyat qilishingizdan qat'i nazar, muvaffaqiyatli biznes loyihalar uchun jamg'arma tomonidan alohida o'ziga xos taraqqiyot yo'li ishlab chiqiladi. Tashkilot shu kabi usullar bilan yoshlarni qo'llab-quvvatlab, 50 ming o'g'il-qiz bandligini ta'minlashni ko'zlamoqda.

Biznes loyihalarni moddiy rag'batlantirish hajmi ularning kelgusi istiqboli, qamrov ko'lamini kengligiga ko'ra belgilanadi. Xususan, O'zbekiston bozorida muvaffaqiyat keltiradigan startap

loyihalarga 1 milliard so'mgacha, xorijiy bozorga chiqish imkoniyatiga ega startap loyihalarga esa 2 milliard so'mgacha mablag' ajratiladi.

E'tibor bering, bu yerda bir necha yuz millionlar emas, milliardlar to'g'risida so'z bormoqda. Ushbu mablag' bemaol bir yoshning o'z g'oyasi va fikrlarini hayotga tatbiq etishi hamda yo'lga qo'yg'an biznes orqali oilasi, qolaversa, yana qator yoshlarning turmush sharoitini yaxshilashiga boshlang'ich sarmoya bo'la oladi.

Yosh o'g'il-qizlarga bunday imkoniyatlar taqdim etilayotgani faol yoshlarga ishonch naqadar baland ekanini nishonlasdir. Ularga bildirilgan ishonch

esa mamlakat kelajagi, xalqning ertasiga ishonch demakdir.

Prezidentimizning ushbu "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra esa, "Yoshlar biznesi" dasturi amalga oshiriladi.

Ushbu dastur doirasida "Biznesga birinchi qadam", "Yoshlar uchun ish o'rinlari", "Innovatsion yoshlar" loyihalari hayotga tatbiq etilib, 350 ming kishining bandligi ta'minlanishi rejalashtirilmoqda.

Hujjat ko'ra, "Aloqabank" yoshlar banki, deya e'tirof etilib, ularning biznes loyihalarini amalga oshirishda eng yaqin hamkori bo'ladi.

Keling, yoshlarning turli jabhalarini qamrab oladigan dastur loyihalarini mahalla yoshlari misolida tushuntirishga harakat qilamiz. Mahalla guzari yonidagi marketga utash kichkina xonada Azizbek kosiblik qiladi. U ikki yil avval o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tib ish boshlagan. Odamlar xizmatiga shay Azizbekning mahoratidan butun mahalla mamnun. U o'z faoliyatini yangi bosqichga ko'tarib, bolalar poyabzali tayyorlaydigan kichkina sexi bo'lishini xohlaydi.

Harakatchan, faol yoshlaridan yana biri — Xadichaxon. U tikuvchilik ustaxonasini yuritadi. Hozir qo'lida besh nafar chevar xotin-qiz ishlab, oilasi daromadiga hissa qo'shayotir. Xadichaxonning yana 20 ayolning bandligini ta'minlashga sharoiti bor. Ammo buning uchun o'zgina qo'shimcha mablag'ga ehtiyoj sezaypti. Shu bois, "Yoshlar uchun ish o'rinlari" loyihasi qo'ra, 20 ta ish o'rni yaratishni

nazarda tutuvchi biznes rejasini allaqachon tuzib qo'yg'an. Faqatgina uni bankka taqdim etib, 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yil muddatga 5 milliard so'm kredit olish qolgan, xolos.

Azizbek "Yoshlar biznesi" dasturining "Biznesga birinchi qadam" loyihasi bo'yicha 7 yil muddatga 100 million so'm imtiyozli kredit olib, o'zi istagan uskunani sotib olish niyatida. O'zini o'zi band qilgan yoshlarga beriladigan bu kreditni olish uchun hatto bankka ham borib o'tirishi zarurmasligini eshitib, ko'ngli to'q. Faqatgina loyihaning hayotga tatbiq etilishini sabrsizlik bilan kutib turibdi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, hujjatga binoan yo'lga qo'yiladigan birgina dastur bilan yoshlarimizning turli maqsadlari o'z ro'yobini topishi mumkin. Ushbu dastur orqali 350 ming yoshni qamrab olish, yana 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlarga qo'shimcha 100 ming ish o'rni yaratish ko'zlanmoqda.

Uchinchi muhim hujjat — Prezidentimizning "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida amalga oshiriladigan "Kelajakka qadam" dasturi talabalar bandligini ta'minlash, xorijiy o'quv-yurtlarida malaka oshirishini qo'llab-quvvatlash, o'z sohasidagi biznes loyihalarni hayotga tatbiq etishida ko'maklashishga xizmat qiladi.

Hujjatlarida yoshlarda biznes reja tuzish, startap loyihalar tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirish borasida ham qator yangi mexanizmlarni joriy etish masalalariga urg'u berilgan. Xususan, joriy yilning 1-aprelida ishga tushiriladigan "Yosh tadbirkorlar" raqamli platformasida onlayn treninglar o'tkazish rejalashtirilmoqda. Shuningdek, platforma yosh tadbirkorlarga mahsulot va xizmatlar uchun bozor topishning onlayn maydoni bo'ladi.

Hududlarda tashkil etiladigan "Yoshlar inkubatori" markazlari esa yoshlar dunyoqarashi o'zgarishi, soha bo'yicha kerakli bilim-konikmalarga ega bo'lib, tayyor biznesmen bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Shuningdek, bunday markazlar endi ish boshlagan tadbirkor o'g'il-qizlarga ofis ijaraga berish, buxgalteriya, marketing, eksport bozorlariga chiqish bilan bog'liq kompleks xizmatlar ko'rsatadi.

Maqolamiz avvalida mamlakatimizning qadimda dunyoning eng yirik tijorat markazlaridan biri bo'lganini qayd etgandik. Ayni paytdagi tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi keng qamrovli islohotlar mamlakatimizning ushbu mavqeiini yana tiklashiga zamin hozirlaydi. Yuqorida sharhlagan me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarning bajarilishi ham qay bir ma'noda, mana shu ezigu va yuksak marra zabt etilishiga xizmat qilishi, shubhasiz.

Sanjar ESHMURODOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Bojxona xizmati har qanday davlatning iqtisodiy taraqqiyoti va milliy xavfsizligida muhim ahamiyatga ega. Bundan bir necha yillar avval O'zbekiston bojxona tizimi savdo rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, biznes uchun ma'muriy to'siq va iqtisodiy jarayonlar samaradorligini pasaytiradigan bir qator jiddiy muammolarga duch kelgan edi.

Bojxona rasmiylashtiruv murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, tadbirkorlar uchun kechikish hamda qo'shimcha xarajatlarga olib kelardi. Eksport va import operatsiyalari rasmiylashtiruv uchun haftalar, oylar ketardi. Achinarlisi, bojxona amaliyotlari, asosan, inson omiliga asoslangan, bu esa xatoliklar, korupsiya omillari va samarasizlik xavfini oshirgan. Elektron texnologiyalar yetishmasligi ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonini sekinlashtirib, tadbirkorlar ortiqcha qo'g'ozbozlikka o'ralashib qolgan ham rost.

Qator bojxona postlari zamonaviy uskunalar bilan jihozlanmagani natijasida tirbandlik va yuklarni tashishda kechikishlarga sabab bo'lardi. Shu va boshqa muammolar uzoq vaqtdan beri iqtisodiyot va tashqi savdo aloqalar rivojiga to'siq bo'ldi.

Biroq keyingi sakkiz yilda tizimda keng ko'lamli islohotlar kechdi. Sohani modernizatsiya qilish jarayoni izchil davom ettirilmoqda. Zero, O'zbekistonda bojxona ma'muriyatchiligini modernizatsiya qilish va takomillashtirish strategik vazifa hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 4-5-fevral kunlari Mamlaziyaga rasmiy tashrifi doirasida qator kelishuvlar, savdo-iqtisodiy va investitsiya sohalaridagi amaliy hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratilib, ikki davlat o'rtasida qator yo'nalishlar bo'yicha muhim hujjatlar imzolandi. Xususan, Bojxona ishida hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi bitim ikki davlat o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, tajriba o'rganish va ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yishda muhim ahamiyat kasb etadi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida yurtimizning global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimi salohiyatini oshirishga ustuvor ahamiyat qaratilgan. Ayni maqsadda

Bugunning gapi

XAVF TIZIMI

122 TA MEZON BO'YICHA TADBIRKORLARNING ISHONCHLILIK DARAJASINI BAHOLAYDI

transport-logistika tizimini jadal rivojlantirish, transport infratuzilmasini yaxshilashga investitsiya jalb qilish, yuk tashishlar bozorida sog'lom raqobat muhitini yaratish borasida izchil chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Zamonaviy bojxona xizmati, avvalo, tovarlarning chegara orqali o'tishini nazorat qiladi. Shuningdek, savdo-sotiqni rag'batlantirish, investitsiya jalb etish va byudjet daromadlarini oshirishda alohida o'rin tutadi. Jarayonlarni soddalashtirish, raqamli texnologiyalar joriy etish va noqonuniy tovar aylanmasiga qarshi kurash ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga yordam beradi.

Eksport hajmini oshirayotgan va xalqaro iqtisodiy shartnomalarda foydaliroq etayotgan O'zbekiston uchun samarali bojxona tizimi qator imkoniyatlar eishigini ochadi. Xususan, biznesdagi to'siqlarni bartaraf etish, yuk rasmiylashtiruvini tezlashtirish va tadbirkorlar xarajatlarni kamaytirishga zamin yaratadi. Qolaversa, shaffof va prognozlashtirish uchun qulay sharoitlarni yaratish orqali xorijiy investorlarni jalb etish imkonini paydo bo'ladi. Natijada adolatli soliq yuki ta'minlanadi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, bojxona jarayonlarini raqamlashtirish ustuvor yo'nalishlardan. Elektron deklaratsiya joriy etilishi, xavflarni avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish tizimlari va xalqaro ma'lumotlar bazalari bilan integratsiya qilinishi savdo operatsiyalarini tezlashtirish va korupsiya xavfini kamaytirish imkonini bermogda.

Eksptlar fikricha, yetakchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va bojxona standartlarini xalqaro me'yorlar bilan uyg'unlashtirish raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Sodda qilib aytganda, bojxona xizmatini rivojlantirish nafaqat jarayonlarni texnik jihatdan takomillashtirish, balki mamlakat iqtisodiyoti, xavfsizligi va investitsiya muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois, O'zbekiston uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlanish va jahonda o'z mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladigan bojxona xizmatini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Davlatimiz rahbari joriy yil 24-fevral kuni bojxona faoliyatini takomillashtirish va raqamlashtirishga oid taqdimot bilan tanishish jarayonida mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy aloqalarni yaxshilash maqsadida bu sohada ko'p ishlar qilinganini alohida qayd etdi.

Xususan, o'tgan davrda o'nga yaqin davlat bilan oldindan axborot almashinuvini yo'lga qo'yildi, bojxona rasmiylashtiruv va ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari tashkil etildi. 4 ta yirik bojxona postida terminallar qurildi, 20 dan ziyodi yangi uskuna bilan ta'minlandi. Tadbirkorlar uchun 35 ta axborot tizimi joriy qilinib, eksport jarayonlari 9 dan 3 bosqichga tushdi. Natijada chegara orqali transportlar harakati 8 barobar ko'payib, qariyb 5

milliontaga yetdi. Byudjetga tushumlar 9 barobar o'sib, o'tgan yili 63 trillion so'mdan oshdi. Yuklarni rasmiylashtirish vaqti importda 3 soat, eksportda 20 daqiqagacha qisqardi.

Umuman, tizim soddalashtirilishi orqali 6 mingga yaqin eksportyur hamda 20 mingga yaqin importyur sarf-xarajati va vaqti tejaladi. Xalqaro logistika reytingida bojxona ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston 140-o'rindan 74-o'ringa ko'tarildi.

— Bojxona kuzatuvida sun'iy intellektni keng qo'llash masalasiga alohida e'tibor qaratildi, — deydi Bojxona qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari G'ayrat Nosirov. — Shu maqsadda Jahon banki mutaxassislari ko'magida "Xavf tizimi" takomillashtiriladi. Bu tizim moliyaviy barqarorlik, savdo tarixi kabi 122 ta mezon bo'yicha tadbirkorlarning ishonchlilik darajasini baholaydi. Shuningdek, rentgen tasvirlari sun'iy intellekt asosida tahlil qilinib, xavfli tovarlar avtomatik aniqlanadi.

O'zbekiston "raqamli bojxona" tamoyilini keng miqyosda tatbiq etish bo'yicha katta tajribaga ega. So'nggi uch yilda bojxona organlari faoliyatiga yangi 26 ta axborot tizimi va 10 ta mobil ilova tatbiq etildi. Raqamlashtirish jarayonlarini bugungi zamon talablari asosida, sun'iy intellektni qo'llagan holda olib borish ko'p jihatdan malakali kadrlar salohiyatiga bog'liq. Buning uchun xorij tajribasini chuqur



o'rganish, chet ellik mutaxassislarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Taqdimotda Bojxona instituti salohiyatini oshirish, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, tahlila-tahlil bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash, dual ta'limni rivojlantirish bo'yicha qator vazifalar belgilandi.

Yana bir muhim jihat. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida bojxona qonunchiligini bunga to'liq muvofiqlashtirish vazifasi qo'yildi. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi investitsion jozibadorlikni oshirish, tadbirkorlarimizning mintaqaviy va global bozorlarga kirib borishini ta'minlashga xizmat qiladi. JSTga a'zollik, islohotlarning maqsadi ham xalqimiz farovonligini ta'minlash, munosib ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiyot boshqaruvini yanada samarali tizimga o'tkazishdan iborat.

Keyingi yillarda bojxona hududida qayta ishlash turlari kengaytirilgani samarasida bu tarzda eksport qilingan tovarlar ulushi o'tgan yili 1 milliard dollardan oshdi. Bu tizimni yanada soddalashtirish, shu yilning o'zida eksportni 1,5 milliard dollarga yetkazish mumkin. Tovarlarni tashqi savdosini aylanmasi 2021-yilda 33 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, o'tgan yili bu ko'rsatkich 47 milliardga yetdi.

— Bugun oldimizda turgan asosiy vazifa raqamlashtirish jarayonini tezlashtirish

— Bugun oldimizda turgan asosiy vazifa raqamlashtirish jarayonini tezlashtirish

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Xush tilak ayolni xushro‘y qilgaydir,
Ko‘ngli ko‘kka bo‘ylab, ko‘zi kulgaydir,
Qalbi qalqib-qalqib, baxtga to‘lgaydir,
Tilni tamshantirgan dil roz ayolga,
Ehtirom ayolga, e‘zoz ayolga!

Ayol — umrimizning bog‘iga husn,
Ayol — g‘ururimiz tog‘iga husn,
Shu bog‘da, shu tog‘da gul bo‘lib unsin,
Xushnuddir yarashar xush noz ayolga,
Ehtirom ayolga, e‘zoz ayolga!

Husnu malohati malaklik uchun,
Ishqi ifor sochgan yuraklik uchun,
Shodlik shalolasi sachratsin uchqun,
Hayo himoyada mumtoz ayolga,
Ehtirom ayolga, e‘zoz ayolga!

Ona osmonimiz oftobi erur,
Opa mehrimizning dil obi erur,
Singil sadoqatning rubobi erur,
Ezgulik, e‘tibor hamroz ayolga,
Ehtirom ayolga, e‘zoz ayolga!

Qizlar — qadrimizning qadim qalqoni,
Umrimning yo‘ldoshi — umidim joni,
Ayol o‘z millatin abadiy shoni,
Quvonch qanotida parvoz ayolga,
Ehtirom ayolga, e‘zoz ayolga!

Mahmud TOIR,
O‘zbekiston xalq shoiri

Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida gul bozorida qadrdon hamkasb do‘stimni uchratib qoldim. Ancha gurunglashdik. Hazil-huzul bilan boshlangan suhbatimiz bayram arafasida kechgani uchunmi, onalar, opa-singillar va oilalarimiz haqida bo‘ldi. Do‘stimning qo‘lida guldasta emas, gul ko‘chatlarini ko‘rib savol nazari bilan qaradim. U nigohimdagi savol alomatini darhol payqadi. Onasini tabriklagani qishloqqa borsayotganini aytdi. Qiziq, ko‘chat bilan-a?!



— Birinchi sinfga borganimdan ikki oyo‘tgach, onam xastalanib vafot etdi, — deya hikoyasini boshladi do‘stim. — Ma‘rakalari o‘tgach, yana maktabga qatnay boshladim. Birinchi o‘qituvchimiz rasm darsidan tashqari barcha fan mashg‘ulotlarini o‘tadigan juda mehribon kishi edi. Bahor kelib, ayollar bayramidan bir kun avval — oxirgi dars yakunida sinfdosh qizlarni tabriklab, ko‘ngilni quvontiradigan so‘zlar aytdi. Ayni paytda biz, o‘quvchilarga ertaga, albatta, onalarimizni tabriklashimiz zarurligini nasihat ohangida tayinladi...

Bu menga negadir topshiriqdek tuyuldi. Ammo vazifani bajara olmasligimni anglab, men uchun eng aziz insonni yo‘qotishdan yarador ko‘nglimdagi og‘riq hali ham ketmagandi. Aslida, bu voqea goh tush bo‘lib qolishiga, goh onamning qandaydir mo‘jiza bilan uyga kirib kelishiga o‘zimni ishontimoqchi bo‘lib yurgan kezarim sodir bo‘lgan edi. Buni menga biror kishi eslatishini, achimib qarashini ham istamasdim. Chunki bu qarashlar xayoliy orzum va kutgan mo‘jizamni yo‘qqa chiqaradigandek tuyulardi.

Istak va sog‘inch ustunlik qilibmi, ertasi kuni tushga yaqin qishlog‘imiz chekkasidagi

qabristonga bordim. Xayolimda simto‘r bilan o‘ralgan qabristonga qarab onamni bayram bilan tabriklamoqchi bo‘ldim. Avvaliga simto‘r ortidan turib pichirlab nimalardir dedim. Taxminan “Sizni yaxshi ko‘raman, juda sog‘indim”, degan bo‘lsam kerak. Negadir “Sovg‘am bo‘lganda edi...” degan fikr xayolimdan o‘tdi. So‘ng atrofga alanglab erta bahor kunlari do‘ngliklarda unib chiqqan tugmachagul, bitta-yarimta qizg‘aldoqqa o‘xshash o‘t-o‘larga ko‘zim tushib, quvonib ketdim. Ulardan bir tutam yulib keldim. Amallab chuqurcha kovlab, gullarni ekdim. Qabriston yoqasidagi ahordan chekkasi yirtiq do‘ppimda suv olib chiqib quydin. Shunday qilsam, bu gullar tomir otib ketadi, onam ularni ko‘rib quvonadi deb chippa-chin ishonchim ham.

Bayramdan so‘ng maktabga borganimizda muallim bizdan onalarimiz, opa-singillarimizni bayram bilan tabriklaganimiz haqida so‘radi. Barcha jo‘r ovozda “Ha, tabrikladik!” dedi. Nazarimda, mening ovozim eng baland, ishonchli va quvonchli jaranglagandek bo‘ldi...

Ikkinchi qutlov

...Urush qatnashchisi bo‘lgan otam boshqa uylanmadi. Tarbiyamizga qattiq qarar, o‘qib bilim olishimizni doim rag‘batlantirardi. Dars qilayotganimni, hatto biror badiiy kitob o‘qiyotganimni ko‘rsa, zarur bo‘lsa ham aslo ish buyurmas, o‘sha ishini o‘zi qilardi. Oylar, yillar o‘tib, o‘zim o‘ylab topayotgan mo‘jizalar

endi chuqur hurmat va e‘zozga yo‘g‘rilgan xotiralarga aylana bordi. Kitob o‘qish eng yaxshi ko‘radigan mashg‘ulotimga aylandi.

Kunlarning birida onamning hayotligida tushgan va devordagi ramkaga solingan yakkayu yagona surati ortidan ro‘molini topib oldim. Xuddi boshidan sirg‘alib surat ortiga tushib qolgandek edi. O‘sha kuni ro‘molni hidlab, quchib uxlab qoldim. Keyin yashirib qo‘ydim. Qachon onamni sog‘inib esga olsam, ro‘molni olib hidlaydigan bo‘ldim. Uni hozir ham saqlab kelaman...

Oylar, yillar bilan birga hayot haqidagi qarashlarim, tushunchalarim ulg‘aya bordi. Sakkizinchi sinfga o‘tgan kezarim tuman gazetasiga xat-xabar yoza boshladim. Ular chop etilganda negadir ko‘pincha onam yodimga tushardi. O‘sha kezda Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami arafasida ilk bor she‘r yozib jo‘natdim. She‘rim ona haqida edi. Ma‘qul bo‘ldi, shekilli gazetaning bayram sonida e‘lon qilindi. Hozir o‘sha she‘rni to‘liq eslay olmayman. Faqat oxirgi satri yodimda: “Ishonaman, ona, bir kuni tongda, uyg‘otasis boshim siypalab”.

— Mana shu gul ko‘chatlarini onamning qabri poyiga o‘tqazib kelmoqchiman, — deya suhbatimizni yakunladi do‘stim.

Bu xotiralar, samimiy so‘zlar onadek ulug‘ zotga cheksiz hurmat va e‘zoz, eng samimiy tabrik ifodasi edi.

Rustam BOYTO‘RA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



BESH BARMOQ YIG‘ILSA, MUSHT BO‘LAR...

O‘ramizdagi odamlar

“Sizdan boshqasi hal qilolmaydi!”

Ayollar yig‘inida o‘tirgandi. Notanish raqamdan qo‘l telefoniga qo‘ng‘iroq bo‘ldi. Avvaliga bandligi sabab javob bermadi. Biroq takror-takror qo‘ng‘iroq bo‘lavergach, javob tugmasini bosdi. Qo‘shni qishloq oqsoqoli ekan. Ellikdan oshgan er-xotin janjallashib qolibdi. Ikkalasi ham ajrashmiz deb turib olganmish. “Sizdan boshqasi bu muammoni hal qilolmaydi”, dedi xavotirli ovoz egasi.

Hoji ona yoqasini ushladi. Yoshlarni ku tushunish mumkin, hali g‘o‘r bo‘ladi. Nevarali odamlarga nima bo‘lgan-a? Onaxon ma‘rakadan tursolib, muammoli xonadonga bordi. Ko‘rpachaning bir chetida omonat o‘tirib, o‘zining kechmishini, yoshlikdagi qiyinchiliklarni gapirib berdi.

— Orangizdagi masalani jahl bilan emas, aql ko‘zi bilan qarab hal etish kerak. Quda-andalisiz. Odamlar gap-so‘zidan, Yaratganning dargohida borganingizda, unga nima deb javob berishdan qo‘rqsangiz, kech bo‘lmasidan tafakkur qiling, — dedi mehmon gapini yakunlab, Bu so‘zlardan so‘ng uy egasi xatosini tushunib, kechirim so‘radi. Ayol choy damlagani oshxonaga shoshildi...

Er-xotinni yarashtirgan inson — Samarqand viloyati Toyloq tumanidagi “Buvijonlar maktabi” jamoatchilik kengashi a‘zosi, “Shopo‘lat” MFY “Buvijonlar maktabi” rahbari To‘xtatosh Turdiyeva edi.

“Uyingizning darvozasi yo‘g‘-u...”

Onaxon 25-30-yil avvalgi kunlarni eslab, fikr yuritadi. Bugungi kunlarga shukur qiladi. To‘g‘risi, o‘sha kezar oila

Yubiley o‘rniga sunnat to‘yi

— Bundan 100-150 yil muqaddam jadid bobolarimiz isrofgarchilikning oldini olishga chaqirgan. Mana, oradan shuncha vaqt o‘tibdik, bu mavzu o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Hali ham vatandoshlarimiz orasida kimo‘zarga musobaqalashayotganlar bor. Bu ma‘naviyatsizlik kitob, gazeta o‘qimaslikning oqibati. Biz, buvijonlar shu masalada yakdil ishlayapmiz. To‘y-marosimlarni ixchamlashtirish, isrofning oldini olish bo‘yicha qilayotgan ishlarimiz natija beryapti, — deydi To‘xtatosh Turdiyeva.

Bugun qahramonimiz xonadonidan mehmon arimaydi. Yo‘qlab kelguvchilarning aksariyati opadan yaxshilik ko‘rgan, u bilan opa-singil tutingan. U kimningdir oilaviy nizosini hal etgan, kimningdir baxt qulfini ochgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, mahalladagilar uni “amma ona” deb chaqiradi. Mahallalarda ana shunday “amma ona”lar qancha ko‘p bo‘lsa, muammolarimiz shuncha kamayadi.



Farzandlari o‘zaro maslahatlashib, onaxonning yubileyini o‘tkazmoqchi bo‘ldi. U e‘tiroz bildirdi. “Rozi bo‘lsalaringiz, shu mablag‘ni savob ishga sarflasak. Masalan, bolalar uyidagi go‘daklarning ko‘nglini olishimiz mumkin”, dedi. Farzandlari “Onajon, siz nima desangiz shu”, deb javob berdi. Ezgu ishga yeng shimargan ayolning qarorini eshitgan tuman hokimi hamma uchun maqbul taklif berdi: “Tumanda ehtiyojmand oilalar bor. Shularning qorako‘zlari uchun sunnat to‘yi qilib bersangiz, durust bo‘lardi”. Bu taklif opaga ham yoqdi va 11 bolaning xatna to‘yini o‘tkazib berdi.



nuroniyalarning 5 farzandan 6 nevarasi bor.

Onaxon 1999-yilda fermer xo‘jaligi tashkil etdi. G‘alla yetishtiradi va har yili bir gektardan kamida 60 sentnerdan hosil oladi. Dalasida bo‘sh joyni o‘zi yo‘q: turfa gullar, shifobaxsh giyohlar va sabzavotlar ekadi. Takroriy ekinlardan gulkaram, piyoz, kartoshka, loviya ekib, daromad qiladi. Shiyponi shundoqqina tut plantatsiyasi etagida joylashgan. Har yili kamida 10 quti ipak qurti boqiladi.

Bugun fermer xo‘jaligi ko‘p tarmoqli va unda mahallaning ko‘plab yoshlari ish bilan band qilingan. O‘sha yerdagi madaniyat saroyida onaxon yoshlar uchun 10 ming kitob fondini o‘zida mujassam etgan kutubxona ochib berdi. Mazkur dargohning o‘z yo‘qlovchilari bor.

Muammo mahalladan tashqariga chiqmaydi

Shopo‘lat ko‘hna qishloq. Markaziy davlat arxividagi va tarixchi Muhammad ibn Arab Qatag‘on yozib qoldirgan manbalarda keltirilishicha, qishloq nomi Muhammad Shayboniyning nevarasi Shoh Fo‘lod ismidan

Yoshlar uchun kutubxona

To‘xtatosh Turdiyeva o‘rta ma‘lumot bilan 36 yil davlat tashkilotlarida ishladi. O‘sha paytdagi sharoit uning oliy ma‘lumot olishiga monelik qilgan. Shunga qaramay, tirishqoqligi sabab borgan jamoasida “ko‘kardi”. Odamlar mehrini qozondi. Sabzavotchilik va uzumchilik xo‘jalik rahbarining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, kasaba uyushma qo‘mitasi raisi, qishloq xo‘jaligi hamda chorva bo‘limlari boshlig‘i lavozimlarida xizmat qildi. Turmush o‘rtog‘i ham shu yerdagi zavodda ta‘minotchi ekspeditorlikdan pensiyaga kuzatilgan. Biri 72, ikkinchisi 68 yoshni qarshi olgan

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 346.
37346 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-mabaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilibiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘za yakuni — 21:10 Topshirildi — 23:35

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Veb-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.